

Fayziyev O'rinboy Toshmuhammad o'g'li
Mirzo Ulug'bek Nomidagi O'zmu Tarix fakulteti
1-kurs Magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada: Inkluziv ta'lim tarixi, qadimgi davrda nogironligibo'lgan shaxslarga e'tibor qanday bo'lganligi hozirgi kunda nogironlarga qanday imkoniyatlar berilayotganligi haqida malumot olish mumkin.*

Kalit so'zlar: *BMT, XMT, Ed Robert, Jyudi Xyumanlar, nurlı maskan, shayton malayi, xarbiy nogironlar, ko'zi ojiz zaif ko'ruvchi.*

Inkluziv ta'lim tarixi. Nogironlik uzoq tarixga ega bo'lgani uchun ham qadim zamonlardan bu masala jamiyatning asosiy muammolaridan biri bo'lib kelgan va uning tarixi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Nogironligi bo'lganlarga g'amxo'rlik, nogironlikning oldini olish, uni davolash masalalari xar bir xalqning mentalitetidan, davr xususiyatidan kelib chiqqan xolda turli davrlarda turlicha xarakter kasb etgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odamlar og'ir turmush sharoitida yashaganligi uchun bunday sharoitda faqat tirik qolganlarga yashab keta olgan. Xali ularda nogironligi bo'lgan insonlarga nisbatan xech qanday munosabat shakllanmagan. Imkoniyati cheklanganlarga nisbatan dastlabki munosabatlar diniy mifologik qarashlar zaminida shakllangan. Bu tabiiy hol edi, chunki afsonaviy dunyoqarash bilan falsafiy tafakkur o'rtasida qator umumiylik mavjud va bu antic davr mutafakkirlarining qarashlarida namoyon bo'lgan.

Xalqaro miqiyosda inkluziv ta'limga munosabat. Imkoniyati cheklanganlarning to'laqonli xayot kechirishlariga sharoit yaratib berish maqsadida BMT ning maxsus bo'limlari va bir qancha xalqaro tashkilotlar shu jumladan, XMT YUNESKO tomonidan tadbirlar olib borilmoqda. Nogironlar muammolarini xal qilishga doir masalalar bir qancha davlatlarning xududiy hamkorligi doirasida xal qilinmoqda. Nogironlar huquqiga bag'ishlangan birinchi xalqaro xujjat 1971-yilda BMT tomonidan "Aqli zaiflar huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya"ning qabul qilinishi bilan boshlangan. Ushbu xujjatda imkoniyati cheklangan shaxslarining barcha jabhadagi, siyosiy, iqisodiy, ijtimoiy huquqlarini ta'minlash nazarda tutilgan.¹ Lekin bu akt barcha turdagi imkoniyati cheklanganlarning xuquqlarini ta'minlab bera olmagan.¹ Oqibatda AQSH da Ed Robert Jyudi Xyumanlar o'zlarining ta'lim olish, ish bilan taminlanish va nogironlar aravachlarida harakatlanishga to'sqinlik qilmaydigan yo'laklar barpo etilishini talab qilib chiqdilar o'z atrofida barcha imkoniyati cheklangan shaxslarni¹⁴³ birlashtirdilar.

Yevropada Inkluziv ta'limga munosabat. O'rta asrlarga kelib nogironligi bo'lgan insonlarga bo'lgan munosabatning shakllanishida dinning ta'siri yanada kuchaydi. Yevropada diniy qarashlar va ruxoniylar ta'siri natijasida nogironlar "shayton malayi" sifatida etirof etilgan.² Ularning fikricha, aqli zaiflik bu inson ongining

¹⁴³ Xoliqulova X.Y. O'zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni ximoya qilish siyosati (1991-2014) Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) T., 2018 1 b.

xar hil yovuz kuchlar yordamida boshqarilishi natijasida yuzaga keladi deb ta'riflangan. Shuning uchun tanasida biror illati bor odamlar jodugarlar bilan bir qatorda inkvizitsiya sudi qarorlariga binoan olovda yoqib o'ldirilgan. Xatto imkoniyati cheklangan shaxslarni jamiyatdan ajartirish alohida markazlar tashkil etilishi natijasida ular daydi va nochor xayot kechirishgan. Birinchi jahon urushi natijasida nogironlashib qolgan xarbiylarni sog'lomlashirish maqsadida tashkil qilingan qizil xoch institutining Duglas Makmarti "Xarbiy nogironlar xaqida aksiomalar" nomli xujjatda imkoniyati cheklangan shaxslarni reabilitatsiya qilish

asoslarini ishlab chiqdi. Urushdan keyingi vaqtlarda nogironlarni reabilitatsiya qilish tizimi yo'lga qo'yildi va ish bilan ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasida alohida ta'limga ehtiyojli bolalar uchun katta e'tibor qaratilmoqda. Kuni kecha Prezidentimiz "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹⁴⁴ Prezident qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar Ichki ishlar vazirligiga birlashtirilib, "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari (*"Nurli maskan" maktablari*) deb nomlandi. Respublika ko'z kasalliklari klinik shifoxonasi, Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi markazi, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti hamda boshqa tib¹⁴⁵biy muassasalarning malakali shifokorlari jalb etilgan holda, "Nurli maskan" maktablari o'quvchilarini davolash-sog'lomlashtirish va reabilitatsiya qilish amaliyoti yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, barcha "Nurli maskan" maktablari hududiga videokuzatuv moslamalari o'rnatilib, ular tegishli hududiy ichki ishlar organlariga integratsiya qilinadi.

2022/2023-o'quv yilidan:

- "Nurli maskan" maktablarining Brayl yozuvidagi darsliklar va o'quv qo'llanmalar, badiiy hamda bolalar uchun mo'ljallangan adabiyotlar, turli ixtisoslik va yo'nalishlardagi bosma va audiokitoblarga ehtiyoj har 6 oyda o'rganiladi va shu asosda adabiyotlar ro'yxati shakllantirib boriladi;

- ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun belgilangan viloyat va respublika fan olimpiadalari bitiruvchi sinflar o'quvchilari uchun alohida tashkilotiladi;

- "Nurli maskan" maktablari o'quvchilari uchun axborot texnologiyalari, xorijiy tillar, kasb-hunar va tadbirkorlikni o'rgatish bo'yicha o'quv kurslari tashkil etiladi;²

- OTMning tegishli ixtisoslik va yo'nalishlari bo'yicha Brayl alifbosi asosidagi adabiyotlarni chop etish tizimi yo'lga qo'yiladi;

- ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar uchun darsliklar va o'quv-metodik majmualar chop etuvchi nashriyot-matbaa korxonalarini bilan deklaratsiya qilingan narxlar asosida belgilangan tartibda shartnomalar tuzishga ruxsat beriladi.

¹⁴⁴ O'sha asar 8 b.

¹⁴⁵ Mirziyoyev Sh.M Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida PQ 18. 04. 2022

<https://lex.uz/docs/-5966089>

2022-yil sentyabrdan “Nurli maskan” maktablarida o‘g‘il va qiz bolalar uchun alohida zamonaviy jihozlangan ijtimoiy va maishiy yo‘nalishdagi majmua (*o‘quv ustaxona*)lar tashkil etiladi.

Shuningdek, inklyuziv ta‘lim tizimi joriy qilingan ta‘lim muassasalarida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarning yaqin qarindoshlariga ular bilan birga darslarda qatnashish imkoniyati yaratiladi.

2022-yil yakunigacha “Nurli maskan” maktablari uchun o‘zbek nutq sintezatori va boshqa semantik-eshitish vositalari bilan hamohang ravishda milliy dizayndagi maxsus kompyuter dasturlari yaratiladi va o‘quv jarayoniga tatbiq qilinadi.

2022/2023-o‘quv yilidan ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar hamda tayanch harakat a‘zolari shikastlangan bolalarning ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda paralimpiya sport turlari (*dzyudo, futbol, yengil atletika*) bilan mukammal shug‘ullanishi uchun sport guruhlarini tashkil qilinadi.

2022-yil 1-oktyabrdan “Nurli maskan” maktablari negizida ko‘zi ojiz bolalarni maktabga tayyorlovchi bir yillik muddatli tayyorlov guruhlarini faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

2022-yil yakunigacha “Nurli maskan” maktablari hududida “Yo‘l harakati qoidalarini o‘rgatish maxsus maydoncha”lari tashkil etilib, ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar yashaydigan hududlarda ovozi svetoforlar va innovatsion yo‘l belgilarini o‘rnatish choralari ko‘riladi.

Jumladan, inklyuziv ta‘lim barcha bolalarni ehtiyojini hisobga olgan holda eng insonparvar ta‘lim sifatida ular uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bizga ma‘lumk¹⁴⁶i, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, maktab ostonasiga qadam qo‘ygan bolajonda ilk taassurotni “Mehribon ona” qiyofasida gavdalandiradi. Aksariyat bolajonlar maktab tomon ko‘kka qanot qoqib parvoz etayotgan qushdek uchib keladi.

Bu jarayonda alohida ta‘lim ehtiyojli bolalarni maktabga qabul qilish unga e‘tibor berish esa yanada mas‘uliyatlidir. Avvalo inklyuziv ta‘limga jalb etilgan bola o‘qituvchida o‘z onasidek mehribonlik, shirinso‘zlik hislatlarini ko‘rishi kerak. Buning uchun esa, o‘qituvchi bolaning oilasi bilan yaqindan tanishib oladi. O‘qituvchi bu borada ota-onalardan oiladagi bolalar soni, ushbu bolalar ta‘lim ehtiyoji bo‘yicha qay darajada, odatda, bolalar sinfda va tanaffus vaqtlarida nima bilan shug‘ullanadilar, sinfda o‘zini tutish qoidalarini, o‘qituvchi qanday usullarni qo‘llaydi, sinfdagi bolalarning munosabatlari, qanday uy vazifalari berilishi haqidagi dastlabki ma‘lumotni oladi.¹

Ushbu ma‘lumotlarga tayangan holda alohida ta‘lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarni inkluziv ta‘limi dasturi ishlab chiqiladi. Birinchi navbatda alohida ehtiyojli bolada o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantiruvchi mashg‘ulotlarni olib boriladi. O‘qituvchi bola uchun samarali o‘quv materialini va usullarini tanlab olishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek rasmlar, raqamli va tarmoq resurslaridan, o‘quv filmlaridan, audio yozuvlardan ham foydalanishi mumkin. Mashg‘ulotlarga materiallarni tayyorlashda bolaning qiziqishlari, bajara olish imkoniyatlari hisobga olinadi. Mashg‘ulotlar davomida alohida ta‘lim ehtiyojli boladan vazifalarni sinfdagi boshqa bolalardan qabul qilingani kabi qabul qilinadi va ruhlantiriladi. Yutuqlarini va kamchiliklarini ham o‘z o‘rnida tushuntiriladi. Bunday jarayon alohida ehtiyojli bolada o‘ziga bo‘lgan ichonch tuyg‘usini shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Bolaning boshqa bolalardan

¹⁴⁶ PQ 18 04 2022

kam emasligi, uning ham o'ziga yarasha qobiliyati va iste'dodi bor ekanligini yuzaga chiqaruvchi ta'limiy va tarbiyaviy usullardan foydalanish juda muhim. Shunday usullardan biri "O'rganaman-o'rgataman" usuli bo'lib, bunda o'quvchilar o'tilgan mavzularga oid mahsus tarqatmalar, testlar yoki savollar tayyorlab keladilar. Materialni tayyorlash jarayonida ma'lumotlarni dastlab o'zlari o'rganadilar. Sinfga kelib boshqa bolalarga o'rgatish jarayonida esa, o'rganganlarini sinfdoshlariga o'rgatadilar. Bu esa o'quvchilarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantiradi

Agar inklyuziv ta'lim jarayonida o'zaro ko'ngilli muhit yuzaga kelsa va unda bolalar faol ishtirok etsalar, bunday ta'lim barcha bolalar uchun foydali va yaxshi ¹⁴⁷naf keltiradi. Hamkorlik umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikda ishlashni anglatadi. Birgalikda ta'lim olish dars o'tish jarayoning faol shakli bo'lib, unda bolalar kichik guruhlarda muayyan topshiriqni bajarish uchun birgalikda ishlaydilar.

O'qish va o'qitishning samarali usullaridan foydalanishda alohida ehtiyojli bolaning bilim darajasi va imkoniyatlarini e'tiborga olinadi. Bunday yondoshuvlar alohida ehtiyojli boladagi qo'rqish, tortinchoqlik kabi xislatlarni bartaraf etishga

yordam beradi. Ayniqsa, tortinchoqlikni sinfda do'stona muhitni yaratish orqali bartaraf etiladi. Sinfdoshlari unga nisbatan achinish bilan qaramasliklarini oldini olish, o'qituvchidan kattagina pedagogik mahorat talab etadi.

Alohida ta'lim ehtiyojli bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ota-ona va o'qituvchining teng hamkorlikda ish olib borishlari shart. Chunki, uy bolaning tarbiyalaydigan asosiy maskan. Agar bola uyda o'zini yaxshi his qilsa, u maktabda ham o'zini dadilroq his qiladi. Ota-onalarga inklyuziv ta'limga jalb etilgan bolalarni oilaviy tadbirlarga va oilaning kundalik hayotiga qay tarzda jalb qilish yuzasidan maslahatlar berib boriladi.² Oilaning barcha a'zolari alohida ta'lim ehtiyojiga ega bola bilan muloqotda bo'lishlari lozimligini boshlang'ich sinflarda o'qishni boshlashi bilan tushuntiriladi. Ota-onalarga bolaning javobini kutishga, uning fikrini bolani mustaqil tanlovga va qarorlar qabul qilish hamda rag'batlantirishga o'rgatish lozimligi tushuntiriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojli bolalarni uy ishlariga jalb qilish daxldorlik va mas'uliyat hislarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Eng og'ir rivojlanish buzilishiga ega bola ham nimanidir amalga oshirishi-qo'ldan kelgancha buyumlarni tartibga keltirishda, idish-tovoqlarni yuvishda, taom tayyorlashda, ko'chatlar ekishda va hokazo ishlarda qatnashishi mumkin.

Ota-ona dars mashg'ulotlarida ham ishtirok etib, bolaning yutuqlaridan quvonayotganligini, unga bo'lgan ishonchini amaliy tarzda namoyon etishi kerak. Olib borilayotgan ta'lim jarayoniga o'z munosabatini bildirish, farzandining olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishiga ko'maklashish ota-onaning muhim vazifalaridan biridir. Shuningdek ota-onalarning faolligini oshirish maqsadida ta'lim maskanida trening mashg'ulotlari, davra suhbatlari ham maktab hayotida muhim o'rin tutadi. Bunday mashg'ulotlarni ko'p marotaba o'tkazishim natijasida o'quvchilarimizda milliy qadriyatlarga va

¹⁴⁷ Abdullayeva Sh. Bola-Kichik Sayyora// Инклюзив таълимнинг долзарб масалалари: муаммо ва уларнинг ечимлари мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. Lesson-press" нашриёти Тошкент шаҳри. 2021 йил 26 март

oilaning muqaddas ekanligiga oid bilimlari rivojlandi. Sinf o'quvchilari o'rtasida o'zaro do'stona muhit yanada mustahkamlandi. Mamlakatimizda bolalarni ijtimoiy himoya qilish, jismoniy imkoniyatlari¹⁴⁸ cheklangan shaxslarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish tizimi mukammal ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlasto'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni hamda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarorlarining qabul qilinishi har bir bolaning jamiyatda o'z o'rnini topishi yo'lidagi istiqbolli sa'y-harakatlardan biridir. Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi¹ qarori inklyuziv ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, amaliyotda uchraydigan muammolarning yechimlarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»¹gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini

takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida:

1. Quyidagilar:

2020 – 2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish kontsepsiyasi (keyingi o'rinlarda – Kontsepsiya) 1-ilovaga muvofiq;

2020 – 2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish kontsepsiyasini 2020-2021 yillarda amalga oshirish bo'yicha «yo'l xaritasi» (keyingi o'rinlarda – «Yo'l xaritasi») 2-ilovaga muvofiq;

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limini 2025 yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilansinki, Kontsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko'rsatkichlar va tegishli davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlardan kelib chiqqan holda 2022 yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alohida «Yo'l xaritasi» asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

2. Xalq ta'limi vazirligi 2021-yildan boshlab xar yili 1-dekabrga qadar o'tayotgan yilning "Yo'l Haritasi" bajarilishi yakunlarini o'rganish asosida keying yil uchun "Yo'l harita" sini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun Vazirlar Maxkamasiga kiritsin.

Vazirlar Mahkamasi «Yo'l xaritalari» hamda maqsadli ko'rsatkichlarning (indikatorlarning) bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib borsin hamda yiliga bir marta uning natijalarini Hukumat rayosati majlislarida tanqidiy ko'rib borsin.

3. Belgilab qo'yilsinki, Kontsepsiya ikki bosqichda amalga oshiriladi, jumladan:

a) 2020 – 2022 yillar davomida:

inklyuziv ta'lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtiriladi;

¹⁴⁸ Инклюзив таълимнинг долзарб масалалари: муаммо ва уларнинг ечимлари
13 b

inklyuziv ta'lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlanadi, qayta tayyorlanadi va malakasi oshiriladi;

inklyuziv ta'lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi, ular maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlanadi;

inklyuziv ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etiladi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o'rtasida ijobiy ijtimoiy muhit shakllantiriladi;¹⁴⁹

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

inklyuziv ta'lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alohida ta'lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilinadi. Bu Qaror amaliyotda uchraydigan muammolarning yechimlarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoevning BMT Inson huquqlari bo'yicha Kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo'nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konventsiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Butun dunyoda qariyb milliardga yaqin nogironligi bo'lgan shaxslar borligi haqida o'ylab, fikr yuritsak, bu nihoyatda ahamiyatli tashabbus ekaniga amin bo'lamiz.¹

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini keng joriy qilishga qaratilgan chora-tadbirlar, xalqaro va milliy ish tajribalarni o'rganish bo'yicha davlat va nodavlat hamkorlik loyihalari amalga oshirilib kelinmoqda. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar o'zi istiqomat qilayotgan hududlaridagi umumta'lim maktablarida yoshlariga muvofiq sinflarda asosiy o'quv dasturi bilan birgalikda, maxsus dasturlar asosida maxsus ta'lim olishlarini, sinfdagi tadbirlarda tengdoshlari bilan ishtirok etishlarini bildiradi.

O'quv jarayonini yengillashtirish uchun bolaga defektologik, psixologik va pedagogik yordam tizimini joriy etish zarur. O'qituvchi-defektolog bola bilan tuzatish-tarbiyaviy ishlarni olib boradigan va muvofiqlashtiradigan yetakchi mutaxassis sifatida faoliyat olib boradi.

Inklyuziv ta'limda sinf o'qituvchisining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Uning shaxsiy kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar esa quyidagicha bo'ladi: o'qituvchining bolalar bilan munosabatlari insonparvarlikka yo'naltirilgan bo'lishi, rivojlanishi nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiy vakolatlari darajasini oshirishga

intilishi, bolalarning faolligi va mustaqilligi darajasini ta'minlashi, sog'lom bolalar nining rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga insoniy munosabatda bo'lishiga ahamiyat berishi lozim.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlaydigan sinf o'qituvchisi o'quvchilarning individual ta'lim xususiyatlarini aniqlash va rivojlanish ishlarining yo'nalishlarini aniqlashi, o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini qayd etishi, ularning umumiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirganliklarini hisobga olish maqsadida psixolog bilan birgalikda o'quvchilarning

¹⁴⁹ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida PF 5712 29.04.2019

<https://lex.uz/docs/4312785>

xarakter-xususiy¹⁵⁰ atlarini tizimli ravishda chuqur o'rganishi, ota-onalarga ularning ta'limdagi yutuqlari va kamchiliklarini tushunishga yordam berishi lozim.

O'qituvchi tanlangan maqsadlari, vazifalari, mazmuni, nogiron bolani o'qitish va tarbiyalash usullari uchun javobgardir, chunki dastlab bunday bolaning rivojlanishi tengdoshlariga qaraganda o'qituvchining pedagogik yordamiga ko'proq bog'liqdir.

Shunday qilib, o'qituvchining nogiron bolalar bilan ishlashga kasbiy va shaxsiy tayyorgarligi shaxsiy resurslarga asoslangan fazilatlarining butun majmuasini shakllantirishni nazarda tutadi. Masalan, yengil darajadagi qulog'i og'ir yoki nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar sog'lom tengdoshlari qatorida boshlang'ich sinfda ta'lim olayotganda ularga alohida munosabatda bo'lish, ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratsih talab etiladi. Masalan, eshitish qobiliyati zaiflashgan bolalar bilan ishlashda surdopedagogning, nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar bilan ishlashda defektologning tavsiyalariga tayanish lozim.¹

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish o'qituvchilar va logopedlar zimmasiga yuklanadi. Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib ko'rish, nutq buzulish sabablarini o'rganish lozim. Buning uchun har bir bola nutqini tekshirish varaqasi to'ldirilib, qaysi tovushlar to'g'ri yoki noto'g'ri talaffuz qilayotgani belgilab boriladi.

Demak, defektolog tomonidan bolada aniqlangan nutqidagi nuqson, masalan, tovushlarni talaffuzida yoki so'z tuzishdagi kamchiligi asosida u bilan alohida-individual ishlash mumkin. Yoki hamma bolalar bilan birgalikda didaktik o'yinlarda uning ishtirokini ta'minlash, tashkiliy etilayotgan o'yin uning nutqini rivojlantirishga mos bo'lishi lozim.

Nutq o'stirish-ongli o'qishni, so'zlash va yozishga o'rgatishni, til haqida o'quvchilarning yoshi va tushunchasiga mos bo'lgan bilim berishni, ularning lug'at boyligini oshirishni, boshqalarning nutqiga e'tibor va qiziqishni o'stirishni, kitob o'qishga muhabbat uyg'otishni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida olib boriladigan barcha mashg'ulotlarning yetakchi o'rni nutq o'stirish bo'lib, u savod o'rgatish, chiroyli yozish ko'nikmalarini shakllantirish va fikrlash doirasini kengaytirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Savod o'rgatish darslarida amaliy mashg'ulotlarga keng o'rin berish va malakalarni singdirishda qiziqarli va jonli narsalardan, texnika vositalaridan, turli o'yin va o'yin turidagi mashqlardan foydalanish samarali natijalar beradi. Masalan, "Kim sezgir?", "Bu nima?", "Nomini ayt" kabi didaktik o'yinlarni tashkil etish bolalar nutqidagi kamchiliklarni tuzatishga yordam beradi. Kichik-kichik hikoya, ertak, she'r va maqollardagi notanish so'zlar o'qib yoki eshittirib tushuntirilish ham yaxshi samara beradi..Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, har bir bola-kichik sayyora, ana shu sayyorani doimo quyosh misoli yoritib, bilim nurlaridan bahramand etish, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolajonlarni esa doimo bizning qo'llab-quvvatlashimiz asosida ularni har tomonlama barkamol avlod etib voyaga yetkazish biz pedagoglarning muqaddas burchimizdir

¹⁵⁰ Abdullayeva. N. **Inklyuziv ta'limda o'qituvchining kasbiy mahorati – bosh omil**// Инклюзив таълимнинг долзарб масалалари: муаммо ва ularning echimlari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari t'uplami. **Lesson-press** nashriyati Toshkent shaxri. 2021 йил 26 март

¹⁵¹ **Inklyuziv ta'limda o'qituvchining kasbiy mahorati – bosh omil 8 b.**